

“Kelajak soati” 1-mavzu

“Kelajak soati” darsining 5-8 sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:

1-mavzu: “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun”

Dars maqsadi: Umumiy maqsad:

Annotatsiya: “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun” g‘oyasi (shiori), 1-sentabr Davlat mustaqilligi kuni, Yangi O‘zbekiston islohotlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida Vatan, millat va xalq haqidagi dastlabki ijtimoiy-ma’naviy tasavvurlarni shakllantirish, o‘z oilasi, maktabi va mahallasi orqali Vatanga muhabbat, elga hurmat, xalqqa foydali bo‘lish hissini uyg‘otish. Prezident Shavkat Mirziyoyevning vatan, millat va xalq haqidagi fikrlarini bola tilida tushuntirish.

🎯 Aniq maqsadlar:

O‘quvchilarga milliy mustaqillikning ahamiyatini tushuntirish;

O‘quvchilarda xalqimizning mustamlakalik yillaridagi hayoti haqida tasavvur paydo qilish;

O‘quvchilarga mustaqillikning mohiyatini, qadrini uqtirish;

Mustaqillikni mustahkamlash uchun mamlakatimiz Prezidenti olib borayotgan siyosatning ahamiyati haqida bilimlar berish va zarur ko‘nikmalarni shakllantirish.

☑ Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

- o'quvchilar mustamlaka va mustaqillik farqini anglaydi;
- mustaqillikning qadrini tushunadi;
- mustaqillikni kundalik amaliy ishlar, fidoyilik, mas'uliyat bilan mustahkamlash zaruratini uqib oladi;
- Prezidentimizning Yangi O'zbekistonni bunyod etish yo'lidagi xalqparvar siyosati to'g'risida ma'lumot va bilimlar oladi;
- islohotlarga daxldorlik, Vatan va millat taqdiri uchun javobgarlik, faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon qilish ko'nikmasi shakllanadi.

 **Metapredmet:** bu ta'limda o'quvchilarning faqat bir fan doirasida emas, **turli fanlar, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muhitda qo'llay oladigan umumiy ko'nikmalarini** shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir.

Masalan, "Vatan uchun, xalq uchun, millat uchun" darsida:

- Bola Vatan haqida **qo'shiq va maqol aytadi** (adabiyot fani),
- Film tomosha qilib, **taassurotini aytadi** (san'at),
- So'ngra bu harakatlar haqida **fikr bildiradi** (muloqot),
— bu esa **metapredmet yondashuvining namunasidir**.

 **Dars hamkori:** Qori Niyoziy nomidagi milliy tarbiya instituti xodimlari. www.milliytarbiya.uz

 **Dars davomiyligi:** 45 daqiqa.

 **Tavsiya etilgan mashg'ulot shakli:** bilim beruvchi suhbat, video parchalar, zamona qahramoni yoki mashhur kishilar intervyulari, o'yin elementlari va qo'shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

 **Materiallar to'plami:**

- ssenariy;

- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;
- interaktiv topshiriqlar;
- taqdimot.

2 Dars tuzilishi 1 qism. Motivatsion

Darsning birinchi qismining maqsadi – o‘quvchilarning mavzu muhokamasida faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kelgusi faoliyatiga bo‘lgan motivatsiya mashg‘ulot mavzusini aks ettiruvchi materialni ko‘rish va muhokama qilishga asoslanadi.

2-qism. Asosiy

Asosiy qismda o‘quvchilar darsning asosiy ma’nolarini tushunish va ochib berishga yo‘naltiriladi. Shu maqsadda o‘quvchilarga tasviriy materialni tahlil qilish, videolarni ko‘rish va bilishga qaratilgan savollar taklif etiladi.

3-qism. Yakuniy

Dars g‘oyalari umumlashtirish, mashg‘ulotga yakun yasash.

Dars ssenariysi

Dastlabki 10 daqiqada mavzuning siyosiy-ijtimoiy ahamiyati, Davlat rahbari tomonidan ayni mavzuga oid amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar bayon etiladi (prezentatsiya).

1. KIRISH. Motivatsion qism(10 daqiqa)



O'qituvchi: Aziz bolajonlar, mana hozirgina hammamiz “Birinch qo'ng'iroq” tadbirida hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning sizlarga va o'qituvchi-murabbiylarga yo'llagan tabrigini tingladik. Prezidentimiz tabriklarida alohida ta'kidlab o'tganlaridek: **“maktab – bu mo'jiza, kitob, ustozlar o'tadigan har bir dars – beqiyos xazinadir!”**

president.uz

O'qituvchi: Aziz bolajonlar, barchangizni Vatanimizning Mustaqillik bayrami bilan tabriklayman! Xabaringiz bor, poytaxtimiz Toshkent shahridagi Yangi O'zbekiston bog'ida Mustaqilligimizning 34 yillik bayrami katta tantana qilindi. Shu bayramda hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hammamizni bayram bilan tabrikladilar. Keling hozir birgalikda Prezidentimiz so'zlariga quloq tutamiz!

Dars mashg'uloti boshida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yoshlar haqidagi fikrlari aks etgan rolik qo'yib beriladi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, mana hozirgina ko'rganimizdek, hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev sizlarga katta ishonch bildirdilar. Biz hamisha mana shu ishonchga munosib bo'lishimiz kerak. Buning uchun

birinchi navbatda bilim olshimiz, oilamizni, Vatanimizni yaxshi ko'rishimiz zarur! Xo'pmi?

O'quvchilar: ha-a-a

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar! Hammamiz o'z uylarimizda yashaymiz. Uyimizda ota-onamiz bor, ular bizga mehr beradi, bizni avaylab-asraydilar. Biz o'z uyimizda tinch, erkin, xursand yashaymiz. Endi bir tasavvur qilib ko'raylik: bir kuni uyimizga begona odamlar so'ramasdan kirib kelib, "Endi bu uy bizniki. Biz sizlarga xo'jayinmiz. Bundan keyin sizlar biz aytgandek yashaysiz, biz nima desak, shuni qilasiz", deyishsa, siz qanday ahvolga tushasiz?

Mana shu holat, ya'ni birovning yurtini zo'rlik bilan bosib olish mustamlakalik deganidir. Bir davlat boshqa bir davlatni bosib olib, u yerda yashaydigan odamlarga o'z qonunlarini, o'z tilini, o'z urf-odatini majburan o'rgatadi. Bechora xalq o'zini erkin his qilmaydi. Doim azobda, qiynalib, xo'rlanib yashaydi. Mustamlakachilar sizga o'z tilingizda gapirishga, o'z bayramlaringizni nishonlashga ruxsat berishmaydi.

Bizning O'zbekistonimiz ham bir paytlar ana shunday mustamlaka bo'lgan. O'sha paytlarda o'zbek tili, milliy qadriyatlarimiz, bayramlarimiz taqiqlandi. Xalqimiz o'z yeriga, o'z uyiga, o'zining boyliklariga ega emas edi. Qani aytinglarchi, shunday xalqni baxtli, desa bo'ladimi?

O'quvchilar: Yo'-o'-q.

O'qituvchi: Shuning uchun ota-bobolarimiz qadim-qadimdan o'z yurtini dushmanlardan, bosqinchilardan himoya qilish uchun kurashganlar. Bugun O'zbekistonimiz mustaqil davlat!

Qani, aytinglarchi, "Mustaqillik nima? Bu so'zni sizlar qanday tushunasiz?"

(3-4 nafar o'quvchi o'z fikrlarini aytishadi).

O'qituvchi: Javoblar juda yaxshi. Biri-birini to'ldirdi. Rahmat.

Mustaqillik – bu o‘z yurtimizda o‘zimiz xo‘jayin bo‘lishimiz. O‘zimiz xohlagandek yashashimiz. O‘z tilimizda bermalol gaplashishimiz. Qonunlarimizni o‘zimiz ishlab chiqishimiz. Milliy bayramlarimizda zavq bilan, yayrab, o‘zimizning chiroyli urf-odatlarimizni erkin amalga oshirishimiz ekan. Mustaqillikning yana bir nomi Istiqloldir!

Mustaqillik ne demak,

Ne demakdir istiqlol?

Buni bilmog‘ing kerak,

Ma’nosini dilga sol.

O‘z yurtiing – yer, samosi.

Shahri gulshan ma’vosi.

Tongda esgan sabosi,

Tog‘i, bog‘i, daryosi

Endi o‘z mol-u mulking,

O‘z qo‘lingda o‘z erking.

Yurtiing nurga belanib

Ko‘ringaydir ko‘zingga,

Barcha oltin-gavharing

Buyursin-a o‘zingga.

Endi o'zingga bog'liq,
Ne ekib, ne o'rmog'ing.
Olqishlar seni borliq,
Zarur erur bilmog'ing.

G'ururing solib dilga,
Tezroq ulg'ay, top kamol.
Erka farzandsan elga
Senikidir istiqbol.

Jumaniyoz Jabborov

O'zbekiston 1991-yil 31-avgust kuni o'zining mustaqilligini e'lon qildi. 1-sentyabr – Mustaqillik bayrami kuni deb nishonlana boshlanadi. O'zbek tilimiz – Davlat tili bo'ldi. Endi biz o'z davlatimizga egamiz. O'z ixtiyori o'zida bo'lgan xalqmiz.

Shuning uchun har yili 1-sentabrni mustaqillik bayramini katta tantanalar bilan nishonlaymiz. Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev barchamizni Mustaqillik bayrami bilan tabriklaydilar. Kuni kecha Yangi O'zbekiston bog'ida bo'lib o'tgan Mustaqillik bayramini ko'rdingizmi? Mushaklar otilganini mazza qilib tomosha qildingizmi? Prezidentimiz tabrigini eshitdingizmi? Prezidentimiz aytganlaridek, Mustaqillik – eng buyuk boyligimiz, uning qadriga yetishimiz shart.

O'qituvchi: Bolajonlar, hozir sizga bir videolavha ko'rsataman, unda xalqimizning buyuk farzandlarining qiyofasi aks etgan. Lavhani diqqat bilan tomosha qilib, ajdodlarimiz ismini birma bir aytamiz.

Sun'iy intellekt yordamida Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi ajdodlarimiz siymosi ifodalangan 1 daqiqalik videolavha namoyish etiladi. Lavha davomida ekranda ko'ringan qahramonlar ismini o'quvchilar aytib boradi.

Undan keyin xuddi shu lavhaning qahramonlar ismi yozilgan varianti o'quvchilarga qo'yib beriladi. O'quvchilar ismini topolmagan ajdodlarimiz nomini ikkinchi videolavha orqali bilib oladilar. Videolavha ortida "Kim yurtidan yovni quvsa, mendirman o'sha" qo'shig'i yangrab turadi.

O'qituvchi: Barakalla, bolajonlar, ko'plab buyuk ajdodlarimizni yaxshi tanir ekansiz. Hammalarini doim esda tuting. Chunki ular yurtimiz mustaqilligi uchun, vatanimiz gullab-yashnashi uchun jonlarini ayamaganlar.

ASOSIY QISM. Mustaqillikning qadrini tushuntirish. (25 daqiqa)

O'qituvchi: Biz har bir tinch-osuda o'tgan kunimizni, maktabimizni qadriga yetishimiz kerak. Chunki yaqin yillarda ham sentabr oyida siz kabi o'quvchilar bugungidek sinfxonalarda emas, paxta dalalarida umr o'tkazganlar. Ularning boshidan samolyotlar zahar sochib ketgan. Minglab bolalar kasal bo'lib qolganlar. Bu gaplar sizga ertakday tuyulishi mumkin. Lekin bularning hammasi yuz yillar davomida takrorlanib kelgan. Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mana shunday yomon ishlarni to'xtatdi. Keling bu haqida O'zbekiston xalq artisti, sevimli aktrisamiz Dilorom Karimovaning gaplarini tinglab tomosha qilamiz.

Yangi O'zbekiston bog'ida O'zbekiston xalq artisti Dilorom Karimova mustaqillik haqida, paxta zahmatlari, bolalarning dalalarda o'tgan umri haqida, bu fojialarga hurmatli Prezidentimiz chek qo'ygani haqida gapirib bergan videolavha namoyish etiladi. 3 daqiqa.

O'qituvchi: Dilorom opaning xotiralarini eshitdingiz, qani kimda qanday fikr tug'ildi. Biz bugungi kunlarni qadriga yetishimiz uchun nimalar qilishimiz kerak?

O'quvchilar javobi.

O'qituvchi: To'g'ri aytdingiz, mustaqillikni, bugungi kunlarni qadrlashni hozirdan o'rganib borishingiz kerak. Sizlar ham o'zingizni “men kichik bolaman, hali o'quvchiman. Katta bo'lsam, o'shanda yaxshi ishlarni boshlayman” deb o'ylamang. Chunki har biringiz – Yangi O'zbekiston farzandisiz. Shu Vatanning egalarisiz. Buning uchun tirishqoqlik bilan o'qib, izlanib, katta-katta ishlar qilishni o'rganib boring. Ana shunda O'zbekiston sizlar bilan faxrlanadi.

Dunyoning ko'p joylarida urushlar bo'layapti. Qon to'kilyapti. Bolalar, keksalar qurbon bo'layapti. Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tinchlikparvar siyosati sababli biz tinch yashayapmiz. Biz buning qadriga yetishimiz kerak. Bu qanday bo'ladi? Masalan, har kuni yangi bilimlar olishingiz, “Yashil makon” loyihasida qatnashib, bitta gul yoki nihol ekishingiz, ekilgan daraxtlarga suv qo'yishingiz, ko'cha-ko'yda yoki sinfxonada yotgan chiqindilarni maxsus joyga tashlashingiz ham Vatanga xizmatigingiz bo'ladi.

Sizda hozirdan islohotlarga, yaxshi ishlarga hissa qo'shish, vatan, millat taqdiri uchun mas'uliyat, faol fuqarolik tuyg'usi bor bo'lishi kerak. Nega? Kelinglar, birga bilamiz.

1. Islohotlarga daxldorlik – “Bu ishlar menga ham tegishli” deb qarash. Bu nima degani? Bu – mamlakatda bo'layotgan yangilanish, o'zgarishlarga “mening ham aloqam bor” deb qarashdir.

2. Vatan va millat taqdiri uchun javobgarlik nima? – “Mengayam ko'p narsa bog'liq” deb o'ylash. Bu nima degani? Bu – faqat davlat, faqat Prezident emas, har bir fuqaro – ya'ni siz ham Vatan taqdiri uchun mas'ul ekanligingizni

anglatadi. Darsda yaxshi o'qish ham shunga kiradi. Chunki kelajakdagi shifokor, muhandis, muallimlar bo'lib el-yurtga xizmat qilasiz?

3. Faol fuqarolik pozitsiyasi – “Men shunchaki kuzatuvchi emasman, men ishtirokchiman!” Nima degani bu? Bu – mamlakatda nima bo'layotganini kuzatish, tushunish va unga nisbatan munosabat bildirish, o'z hissangizni qo'shish degani.

O'qituvchi: Endi o'zingga 3 ta savol beramiz:

Vatan uchun kerakli bola bo'lishga intilayapmanmi?

O'quvchilar: Ha-a-a

O'qituvchi: Maktabim, sinfim hayotida faolmanmi?

O'quvchilar: Ha-a-a

O'qituvchi: Boshqalar bilan ahilmanmi?

O'quvchilar: Ha-a-a

O'qituvchi: Agar hamma javoblar “ha” bo'lsa – demak siz Yangi O'zbekistonning munosib farzandisiz!

Siz hali yoshsiz, ammo sizni katta maqsad kutyapti! Demak, siz o'zgarishlar ishtirokchisi, Vatan himoyachisi, mas'ul farzand, faol fuqaro bo'lishingiz shart!

Shunda yurtimiz nomini butun dunyoga yoyayotgan aka-opalaringiz kabi zo'r insonlar bo'lib kamolga yetasiz. Xalqimiz faxrlanadigan yurtdoshlarimiz orasida tezkor shaxmat bo'yicha jahon chempioni Nodirbek Abdusattorov ham bor. Keling hozir ularning olamshumul muvaffaqiyatlarga qanday erishgani haqida o'zlaridan eshitamiz.

O'quvchilarga Nodirbek Abdusattorovning fikrlari qo'yib beriladi.

O'qituvchi: Qadrli o'quvchilar, Nodirbekning siz hozir tinglab tomosha qilgan gaplarini aeroportda yozib olishibdi, Nodirbek Dubaydagi musobaqadan

qaytib, AQSHga yana bir katta musobaqaga uchib ketayotgan ekan. Unga havasingiz keldimi?

O'quvchilar: Ha-a-a

O'qituvchi: Bugun Nodirbekka faqat biz emas, butun dunyo yoshlari havas qiladi. U bilan butun O'zbekiston faxrlanadi. Ana shunday yutuqlarga erishish uchun bugundan tinimsiz o'qish, izlanish kerak. Qaysi sohani tanlashingizdan qat'iy nazar o'z ustingizda boshqalardan ko'proq ishlamasangiz kutilgan natijaga erisholmaysiz. Yangi O'zbekiston farzandlari nimalarga qodir ekanligini Nodirbek Abdusattorov kabi chempionlarimiz jahonga namoyon etishyapti.

Siz yana qaysi chempionlarimizni bilasiz?

O'quvchilar javobi.

O'qituvchi: Barakalla, kelgusida bu chempionlar safida sizning ham nomingiz bo'lishini tilaymiz. Ana shunda Vatanimiz, millatimiz, xalqimiz siz bilan faxrlanadi.

Aziz o'quvchilar, mustaqilligimizning 34 yillik bayrami yurtimizda Prezidentimiz taklifi bilan **"Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!"** degan **ezgu shior ostida nishonlandi.**

Bu so'zlar faqat bayramda aytiluvchi balandparvoz so'zlar emas. **Vatan** – siz yashayotgan yurt, uning tarixi, tabiati, bayrog'i, madhiyasi. **Millat** – o'zbek xalqining tili, dini, urf-odati, an'analari. **Xalq** – sizning ota-onang, qo'shnilaringiz, mahallangiz, maktabdosh do'stlaringiz va yurtimizdagi turli millat vakillari demakdir.

Hamisha Vatan, millat, xalq degan tushunchalar yoniga vatanparvarlik, hamjihatlik, fidoyilik degan so'zlarni qo'shib aytamiz.

Vatanparvarlik bu – Vatanni sevish, asrash, uning ravnaqi uchun harakat qilish.

2. Mehr-oqibat va hamjihatlik bu – millatning birdam bo'lishi demak. Masalan, sinfxonangizga yangi kelgan bola o'zini yolg'iz his qilayotganini ko'rdingiz. Siz uni boshqalarga tanishtirdingiz, o'yinga qo'shdingiz – siz bolalarni birlashtirdingiz!

Fidoyilik va mas'uliyat bu - xalq uchun foyda keltiradigan ishlarni qila bilish. Oddiy misol, yo'ldan o'tishga qinalayotgan bir keksaga yordam berdingiz, bu sizning xalq uchun xizmatlaringizdir.

Ana shunda siz – “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” yashayotgan Yangi O'zbekistonning munosib farzandi bo'lasiz.

Bu nima uchun muhim?!

Bunday farzandlar ko'p bo'lsa – Vatanimiz qudratli bo'ladi!

“Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun” shiori sizni **harakat qilishga** chorlaydi.

3. YAKUNIY QISM

Bundan yuz yillar oldin yurtimiz farzandlari hammadan zo'r bo'lib ulg'ayishini istagan jadid bobolarimiz ham barchamizni tinimsiz harakatga, ilm olishga chaqirgan. Qadrli o'quvchilar, keling endi hammamiz hozir jadid bobolarimiz yod etilgan mashhur qo'shiqni tinglab, birgalikda kuylaymiz.

O'quvchilarga Ozodbek Nazarbekov ijrosidagi “Uyg'on, o'g'lim!” qo'shig'i qo'yib beriladi va karaoke tarzida birga kuylanadi.

Qadrli o'quvchilar “kelajak soati” darsimizni jadid bobomiz Abdurauf Fitratning quyidagi gaplari bilan yakunlaymiz:

Turma – yugur,

Tinma – tirish,

Bukilma – yuksal,

Hurkma – kurash,

Qo'rqma – yopish,

Yorilma – qo'zg'al.

Kim bu gaplarni hayotining shioriga aylantirsa, albatta oilasiga, Vataniga, millatiga, xalqiga munosib xizmat qiladigan inson bo'lib kamolga yetadi!

